

**BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA DAVLAT BYUDJETI  
DAROMADLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI**

**Djumanov Saidmurod**

*Ilmiy rahbar:*

**Sulhonberdiyeva Shodiya Shuhrat qizi**

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolaning maqsadi bozor munosabatlarini rivojlantirib, mamlakatimiz daromad byudjetini oshirish hamda tog`ri taqsimlash. Soliqlarni byudjetlararo tog`ri taqsimlash yoritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Daromad, soliq, byudjetlararo xisob kitoblar o`tkazib beriladigan daromadlar, davlat byudjeti.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar yangi bosqichida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlat moliyasi tizimini mazmun va sifat jihatidan zamon talablari asosida takomillashtirish zaruriyati kelib chiqmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning o`rni xususida ilmiy nazariy qarashlar mavjud. Chunonchi, byudjet daromadlari barqarorligiga erishish, bevosita va bilvosita soliq tushumlari o`rtasidagi mutanosiblikni taminlash, shu bilan birga, byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini oshirish yechimini kutayotgan dolzarb masala sifatida qaraladi. Shunday ekan, umumdavlat soliqlarining bir qismi qonunchilikda belgilangan normativ meyorlar asosida mahalliy byudjetlarga o`tkazilib, umumdavlat soliqlardan ajratma meyorlarining o`zgarib turishi mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta`sir korsatadi. Shu bois qoshilgan qiymat solig`i, daromad solig`i, foyda solig`idan tushumlarni ulushli tarzda mahalliy byudjetlarda qoldirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Soliqlar va to`lovlarni byudjetlar o`rtasida taqsimlanishi natijasida mahalliy hokimiyat organlari o`zlarining vakolatlari doirasida maxalliy soliq va yig`imlarni tushum darajasini oshirish yo`li bilan daromadlar bazasini oshirishga manfati kuchaydi hamda mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini xamda yig`uvchanlik darajasini solishtirish yo`li bilan mahalliy hokimliklarning faoliyatini real baxolash imkoniyati paydo bo`ldi. Davlat soliq siyosati respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga, tadbirkorlarni har tomonlama qollab-quvvatlashga, aholi turmush darajasini yaxshilashga faol ta`sir etishi lozim. Binobarin, soliq siyosati - bu nafaqat soliq qonunlarining avtomatik bajarilishi, balki ularning takomillashuvidir. Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo`nalishlariga asosiy e`tibor qaratiladi:

☑ soliqlarning fiskallik darajasini kamaytirib borish;

❑ xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning moliyaviy xo`jalik faoliyatiga qulay imkoniyat va iqtisodiy shart-sharoit yaratish; bozorga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirish;

❑ davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi vazifalarini bajarish uchun zarur bo`lgan moliyaviy manbalarni yaratish;

❑ ish bilan bandlik muammosini bartaraf etishga sharoitlar yaratish, kam ta`minlanganlarga yordam berish;

❑ aholi turmush darajasini yaxshilanishini ta`minlash, soliqqa tortilmaydigan minimumlarni iqtisodiy rivojlanish darajasi va imkoniyatlariga qarab oshirib borish;

❑ "Istemol savatchasi" ga kiruvchi moddalarni kopaytirib borish va boshqalar.

Davlat soliq-byudjet siyosatining strategik vazifasi davlat mablaglarini tuzilmaviy qayta qurishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini taminlash uchun rivojlanyotgan bozor iqtisodiyoti va uning infratuzilmasiga maqsadli tasir korsatishga yonaltirishdan iborat. Bu yerda byudjet-soliq siyosati deganda, davlatning byudjet daromadlarini optimal shakllantirish va davlat xarajatlarini ratsionalizatsiya qilish uchun soliq olishni takomillashtirish sohasidagi siyosati tushuniladi. Ayni paytda soliq-byudjet siyosati ishlab chiqarishni ostirishga vayning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarini kopaytirishga qaratilgan bolishi lozim. Byudjet-soliq siyosatining xususiyati shundan iboratki, u nafaqat davlatning daromadlar bazasini taminlash va kelib tushgan pul mablaglarini xarajat qilish, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda inflyatsiyaning past darajasini, aholining optimali bandligini taminlashi zarur.

Soliq-byudjet siyosati tor manoda makroiqtisodiy barqarorlik va mustahkam iqtisodiy osish, iqtisodiyotda tarkibiy ozgarishlarni taminlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va bosqichma-bosqich valyuta bozorini erkinlashtirish, aholining barqaror moddiy farovonligini taminlash va aholining ijtimoiy himoyasini oshirish kabi umumdavlat makroiqtisodiy vazifalarni taminlashga yonaltirilgan.

Davlat byudjeti siyosati davlatning daromadlari va xarajatlarini ratsional shakllantirish, byudjet boginlari ortasidagi munosabatlarni tartibga solish, mahalliy byudjetlar manfaatlarini muvofiqlashtirib turishni taminlashi lozim. Ayni paytda, byudjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni ostirishga va uning samaradorligini oshirishga soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarini kopaytirishga qaratilgan bolishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq-byudjet siyosatining asosiy vazifalari iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining pasayib ketishiga yul qoymaslik, yani ishlab chiqarishni ragbatlantirishga yunaltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun soliq siyosati sohasida soliq stavkalarini pasaytirish, yangi investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini berish, tezlashtirilgan amortizatsiyani qollash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

2018-yilda yagona soliqdan meyoriy ajratma hamma xududlarda 100 foiz qilib belgilangan. 2018-yilda foyda solig`i Qoraqalpo g`iston Respublikasi, Namangan

viloyati va surxandaryo viloyatida 100 foiz xududlarni itiyorida qoldirgan lek, Andijon (65%), Buxoro (79%), Jizzax (81%), Qashqadaryo (32%), Navoiy (92%), Sirdaryo (90%), Xorazm (83%), Farg`ona (85%) viloyatlarida 32-92 foizlarni tashkil etgan. 2019-2020 yillarida Toshkent shahar va Toshkent viloyatidan tashqari hamma xududda 100ni tashkil qilgan va hozirgacha shunday bo`lib kelmoqda.

QQS ajratma 2020-yilda Qoraqalpog`iston Respublikasida 100%ni tashkil qilgan. 2020-yil 25-dekabrda O`zbekiston Respublikasining "2021 yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti tog`risida" qonuniga muvofiq Byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishning, xususan 2021 yil uchun qaraqalpog`iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va shahar mahalliy byudjetlari daromadlarini shakllantirishning o`ziga xos xususiyatlari keltirigan. Unga ko`ra, soliqlarning bir necha turlari tumanlar va shaharlar byudjetlari, Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjeti, viloyat byudjetlari va Toshkent shahar byudjetiga o`tkazilishi belgilangan. O`zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 134-moddasida byudjetlararo transfertlarning shakllari keltirilgan bo`lib ular subvensiyalar, o`tkazib beriladigan daromadlar, datatsiyalar, byudjet ssudasi o`zaro hisob kitoblar bo`yicha mablag`lar, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi. Maqsadli ijtimoiy transfertlar tumn shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan xalq ta`limi, maktabgacha talim va sog`liqni saqlash muassasalarining yagona ijtimoiy to`lov va ish haqlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan hisoblanadi. Globallashuv sharoitida davlat moliyasini boshqarish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda byudjet tizimi byudjetlari daromad manbalarini ilmiy asoslangan xolda belgilash, soliqlar vositasida byudjetlararo munosabatlarni taqsimlash, byudjet transfertlarini ajratishda xududlarning byudjet bilan taminlanganlik darajasini oshirishga kata etibor qaratilmoqda. Soliqlar tizimini takomillashtirish orqali byudjetlararo mutanosiblikka erishish, mahalliy davlat hokimiyati organarining mustaqil byudjet soliq siyosatini yuritishni tashkil etish, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqillik darajasini oshirish, davlat byudjet daromadlari va qohimcha manbalarni shakllantirishga oid samarali fikal siyosati yuritish, byudjetlararo munosabatlarda soliqlarni ulushli tartibda taqsimlash kabi yo`nalishlarda ishlar olib borilmoqda.

Davlat moliyasini boshqarish tizimi yangi bosqichga olib chiqish va byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq byufjet tizimining yanada shaffofligini oshirish, O`zbekiston Respublikasi Davlat Byudjeti mablag`laridan foydalanish samaradorligini va natijadorligini oshirish bo`yicha Vazirlar Mahkamasining PQ-4555-sonli qarori "2020-2024 yillarida O`zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtish Strategiyasini tasdiqlash tog`risida" qabul qilingan. Unga ko`ra 2020-2024 yillarida O`zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtish Strategiyasida davlat byudjeti darajalari o`rtasida majburiyatlari aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini hisoblash va ajratishning

yagona shaffof uslubi joriy etildi. Hamda ushbu yillarda O`zbekiston Respublikasining Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasida davlat byudjeti darajalari o`rtasida majburiyatlarni taqsimlash masalasiga alohida etibor qaratildi. Davlat moliyasini boshqarishning yanada oqilona samarali tizimi taminlash maqsadida byudjet tizimning byudjetlari o`rtasida ulardan har birining xarajatlar bo'yicha majburiyatlarini aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini xisoblash va ajratishni yagona, shaffof uslubiyati ijro qilingan.

**FOYDALANILGAN ADABIYATLAR:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining PQ-4555-sonli qarori "2020-2024 yillarida O`zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". 2019-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik- har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojantirishning asosiy yakunlari, va kelgusi yillar uchun iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruza.
3. Moliya:Darslik. T.S.Malikov, O.O.Olimjonov; /- T.: "Iqtisod -Moliya" 2022.
4. Morozova Y.A "Муниципальная реформа межбюджетные отношения в российских регионах // Экономика и экономические науки.
5. Toshanov Sh.J "Bozor munosabatlari sharoitida davlat byudjeti"// Международный научный журнал.